*O`zbekiston Respublikasi davlat statistika qo`mitasi*
*Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi*

# Tashqi savdo

(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-may

Viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-may oylarida 108,3 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 57,0 mln. AQSh dollarini va import 51,3 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi 5,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, shundan MDH davlatlari bilan 17,8 mln.AQSh dollarni va boshqa davlatlar bilan -12,1 mln.AQSh dollarni tashkil etdi.

Oxirgi yillarda viloyatimizning eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo`yicha o`sish kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari eksportining o`tgan yilning shu davriga nisbatan 271,4 foizni, kimyo mahsuloti va plastmassa 207,0 foizni, rangli metal mahsulotlari 173,5 foizni, mashina va asbob uskunalar 33,3 xizmatlar eksporti 462,2 foizni, boshqalar 91,7 foizni  tashkil qiladi.

**Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi, jamiga nisbatan foizda**




Oziq-ovqat mahsulotlari importining o`tgan yilning shu davriga nisbatan 100,9 foizni, mashina va asbob uskunalar 196,1 foizni, rangli metal mahsulotlari 57,7 foizni, qora metal mahsulotlari 34,8  foizni, ish va xizmatlar importi 300,0  foizni tashkil qildi.

# Tashqi savdo

**Tovar va xizmatlarning import tarkibi, jamiga nisbatan foizda**




**2018 yil yanvar-may oylarida viloyatimiz tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda**




Tashqi savdo MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog`iston, davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 31,8 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Eron, Afg'oniston davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 61,6 foizni tashkil qildi.

# Tashqi savdo

**Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda**

Eksport | Import







Eksport bo`yicha MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog`iston va Tojikiston davlatlari eksport aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami eksport aylanmasidagi ulushi 46,9 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Afg'oniston, Eron davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 46,2 foizni tashkil qildi.

Import bo`yicha MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog`iston davlatlari import aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami import aylanmasidagi ulushi 18,0 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Koreya Respublikasi, Turkiya, Germaniya, Eron va Litva davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 75,6 foizni tashkil qildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'lim bosh mutaxassisi**

**M.Po'latova**